XALQ DEPUTATLAR CHORTOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 24 - noyabr VI-55-111-6-88-K/23 Chortoq tuman hokimligi

Chortoq tumani mahalliy byudjetining 2023-yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-sonli Qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan Chortoq tuman mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 4 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezidentning hududlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qaror va ko‘rsatmalari ijrosi tumanda bajarilishini inobatga olib, ushbu topshiriqlarning bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlarning tuman budjeti hisobidan amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashiga taqdim etgan taklifiga asosan, tuman mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan 1-sonli ilovaga asosan **500 000 000 (besh yuz million) so‘m** hamda 2-sonli ilovaga asosan tegishli kengash qarorlariga va mahalliy budjet mablag‘lariga kiritilgan o‘zgartirish tasdiqlansin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

4. Chortoq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqovga tumanda daromadlarning oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘lar yo‘naltirish yuzasidan tegishli so‘rovlar shakllantirilsin.

Chortoq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Dehqanov, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i B.Sodiqov hamda tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i S.Mamatvaliyevlar so‘rovnomalarni shakllantirsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Vaxabov) ga budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati (F.Qambarov) ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqov zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **A.Otaxodjaev**

Xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-55-111-6-88-K/23-son qaroriga
1-ilova

Chortoq tuman mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Mablag‘ yo‘naltirish maqsadi	Mablag‘ miqdori (ming so‘mda)
1	Chortoq tumani hokimligi	Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 29-sentyabrdagi VI-40-94-6-0-K/23-sonli hamda Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashining 2023-yil 6-oktabrdagi VI-54-97-6-88-K/23-sonli qarorlarining tegishli bandlariga asosan Yoshlar jamg‘armasiga mablag‘ yo‘nalirish uchun	500 000.0
	Jami yo‘naltirilgan mablag‘lar		**500 000.0**

Xalq deputatlari Chortoq tuman
Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-55-111-6-88-K/23-son qaroriga
2-ilova

1. Xalq deputatlar Chortoq tuman Kengashining 2023 yil 26 maydagi VI-51-53-6-88-K/23-sonli qarorini 1-bandidagi 80 000 000 (sakson million) so‘m so‘zi 79 700 000 (yetmish to‘qqiz million yetti yuz ming) so‘m deb o‘qilsin.

2. Xalq deputatlar Chortoq tuman Kengashining 2023 yil 26 maydagi VI-51-53-6-88-K/23-sonli qarorini 1-bandidagi 80 050 000 (sakson million ellik ming) so‘m so‘zi 12 100 000 (o‘n ikki million bir yuz ming) so‘m deb o‘qilsin.

3. Xalq deputatlar Chortoq tuman Kengashining 2023 yil 17 avgustdagi VI-53-72-6-88-K/23-sonli qarorini 1-bandidagi 51 900 000 (ellik bir million to‘qqiz yuz ming) so‘m so‘zi 51 500 000 (ellik bir million besh yuz ming) so‘m deb o‘qilsin.

Yuqorida tegishli bandlardagi Xalq deputatlar Chortoq tuman Kengash tomonidan chiqarilgan qarorlarning shartnomadan ortib qolgan 68 651 000 (oltmish sakkiz million olti yuz ellik bir ming) so‘m mablag‘ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Chortoq tuman axoli murojaatlarini inobatga olgan holda tuman xo‘jalik ichki yo‘llarini shag‘allash va ta’mirlash ishlariga dizel yoqilg‘isi sotib olish uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

Chortoq tuman mahalliy budjetining 2023 yil soxalarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Xarajatlar moddasi	Mablag‘ miqdori (ming.so‘mda)
1	Chortoq tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Tovar va xizmatlar sotib olish bo‘yicha boshqa xarajatlar 42-99-990	-162 339.0
2	Chortoq tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Tovar moddiy-zaxiralar (qog‘ozdan tashqari boshqa xarajatlar) 42-52-110	-15 000.0
3	Chortoq tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Kitob fondi (43-55-300)	-40 000.0
3	Chortoq tuman tibbiyot birlashmasi	Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar uchun 42-52-410	167 339.0
4	Chortoq tuman tibbiyot birlashmasi	Tovar va xizmatlar sotib olish bo‘yicha boshqa xarajatlar 42-99-990	50 000.0
	Jami yo‘naltirilgan mablag‘lar		**0.0**